



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

MUNDARIJA:

NAZARIYA VA METODOLOGIYA	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева Янги Ўзбекистоннинг бойлиги инсон ресурслари билан ўлчанади	5
Сарвар Аюбовна Исхакова Ўзбекистонда хизматлар соҳасини модернизация ва диверсификация қилишнинг асосий йўналишлари	13
Anvar Nematovich Xoliqulov Servis sifati tushunchasining nazariy talqini	18
Зухриддин Санжар ўғли Рашидов Корхона самарадорлигини оширишни меҳнат ресурслари ҳаракати билан боғланишининг ўзига хос хусусиятлари	21
Mexrangiz Axtam qizi Mullayeva Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari	25
SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI	
Фарида Абдухалимовна Ахмеджанова Роль эстетических показателей тканей в формировании потребительских и эксплуатационных свойств изделий	31
Рузбой Нормакматов, Акрам Гафуров, Баҳора Тўлқинова В ₁ - витамин (тиамин): ва унинг инсон соғлигини сақлашдаги аҳамияти	34
Junaydillo Sadiyevich Fayziyev Atrof-muhitga chiqarilayotgan sut zardobi tarkibidagi zardob oqsillari miqdorini kamaytirish texnologiyasi	37
Ro‘ziboy Normaxmatov, Zakirjon Erkinovich Mamarasulov, Ravshan Pirmatov Askorbin kislotasi (C vitamini) va uning ahamiyati	41
TADBIRKORLIK, MEHNAT, BANDLIK VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH	
Феруз Нематуллаевич Абилов Худудларда камбағалликни қисқартиришнинг инновацион йўналишлари	44
XIZMAT KO‘RSATISH VA SERVIS	
Обид Мамаюнусович Пардаев Коммунал хизматларни ривожлантиришнинг маъмурий-бошқарув ва инфратузилмавий институтционал асосларини такомиллаштириш	50
Акмал Алимжонович Салимов Ривожланган мамлакатларнинг олий таълим хизматлари сифатини ошириш тажрибаларидан Ўзбекистонда фойдаланиш имкониятлари	56
Firuz Kurbanovna Achilova Mintaqada xizmatlar sektorining rivojlanishining zamonaviy modellari	61
Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов Хизмат кўрсатиш соҳасида сохта иқтисодиётнинг айрим кўринишлари ва уни бартараф этишнинг амалий йўналишлари	66
Xusnora Dilmurod qizi Umarova Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasini innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	71
Jahongir Aktamovich Haydarov Logistikada transport xizmatlari raqobatbardoshligini baholashning kompleks yondashuvlari	75

5. Jamoliddin Kambarov, Gulxon Melibayeva. *The Impact Of Human Capital And Human Resources On Competitiveness In Small Enterprises*. Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research Conference Proceedings.
6. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi: O‘zbekistonda mehnat resurslari mobilligining ekonometrik tahlili, *EVU Journal*. (evu.uz)

З. Рашидов	Z. Rashidov
<p>Особенности связи повышения эффективности предприятия с перемещением трудовых ресурсов</p>	<p>Specific features of linking increasing enterprise efficiency with the movement of labor resources</p>
<p>Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется роль и специфические характеристики движения трудовых ресурсов (набор персонала, внутренняя ротация, профессиональный рост, трудовая миграция, увольнение) в повышении эффективности предприятия в условиях инновационной экономики. Влияние движения трудовых ресурсов на эффективность оценивается с точки зрения институциональных, организационных, технологических и социальных факторов. Анализ проводится также на основе теории человеческого капитала, концепции динамических возможностей и современных механизмов управления трудовыми ресурсами в контексте цифровой трансформации.</p> <p>Ключевые слова: эффективность предприятия, движение трудовых ресурсов, человеческий капитал, инновационная экономика, цифровая трансформация, производительность труда, институциональная среда.</p>	<p>Abstract. This article comprehensively analyzes the role and specific characteristics of the movement of labor resources (recruitment, internal rotation, professional growth, labor migration, dismissal) in improving the efficiency of the enterprise in the conditions of the innovative economy. The impact of the movement of labor resources on efficiency is evaluated in terms of institutional, organizational, technological and social factors. It is also based on the theory of human capital, the concept of dynamic capabilities, and modern mechanisms of labor resource management in the context of digital transformation.</p> <p>Keywords: enterprise efficiency, movement of labor resources, human capital, innovative economy, digital transformation, labor productivity, institutional environment.</p>

Mexrangiz Axtam qizi Mullayeva – Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALARNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

<p>Annotatsiya. Mazkur maqolada 2024–2025-yillar kesimida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilindi. So‘nggi ikki yilda xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi, o‘shish sur‘atlari, bandlik ko‘rsatkichlari hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy-statistik asosda o‘rganildi. Tadqiqot natijasida xizmat ko‘rsatish sektorini rivojlantirishda soliq yengilliklari, kreditlash tizimi, raqamlashtirish, infratuzilmani kengaytirish va hududiy differensial qo‘llab-quvvatlash ustuvor ahamiyat kasb etishi asoslandi.</p> <p>Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, davlat qo‘llab-quvvatlashi, YaIM, bandlik, kichik biznes, soliq imtiyozlari, raqamli iqtisodiyot, infratuzilma.</p>
--

Kirish. Global iqtisodiy transformatsiya sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotlarning barqaror o‘shishini ta‘minlovchi strategik tarmoqqa aylandi. Jahon banki va xalqaro iqtisodiy tahlillar natijalariga ko‘ra, xizmatlar sektori rivojlangan mamlakatlarda YaIMning 70–80 foizini tashkil etadi.[1] O‘zbekiston iqtisodiyotida ham so‘nggi yillarda xizmat ko‘rsatish sohasi barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini namoyon etib, iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Davlat statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda xizmatlar hajmi YAIMdagi ulushi 48,6 foizni tashkil etgan. Bu esa xizmatlar sektorining iqtisodiyot tarkibidagi ulushi sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga nisbatan izchil ortib borayotganini ko‘rsatadi.[2]

Xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida xizmatlar hajmini keskin oshirish, hududlarda servis infratuzilmasini kengaytirish hamda xizmatlar eksportini ko‘paytirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Mazkur strategiyada 2026-yilga qadar xizmatlar ulushini YAIMda 50 foizdan yuqori darajaga yetkazish maqsadi belgilangan.[3]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti rivojlanishi, innovasion iqtisodiyot shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, raqobatning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, A.Marshall, M.Fisher, A.Pigu, P.Druker, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, R.D.Erenberg va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan Pardayev M.Q., Po‘latov M.E., Muxammedov M.M., Zaynalov D.R., Mirzayev Q.J., Tuxliyev I.S., Z.Ya.Xudoyberdiyev, G.Q.Abduraxmanova, Arabov N.U., Aslanova D.X. va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ayrim jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish kichik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o‘z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida tizimli va kompleks yondashuv, tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaIM tarkibida xizmatlarni ulushi va qaysi xizmat turlari jadal rivojlanib borayotganligini tahlil qilish orqali xizmatlar sohasining 2024–2025-yillardagi rivojlanish dinamikasi, tarkibiy o‘zgarishlari va iqtisodiy o‘sishdagi rolini ilmiy asosda baholash imkoniyati yuzaga keladi. (1-jadval)

1-jadval

“Xizmatlar sohasining hajmi va o‘sish sur‘atlari (2024–2025-yillar)”[2]

	Hajmi, mlrd so‘m		O‘sish sur‘atlari
	2024-yil yanvar-dekabr	2025-yil yanvar-dekabr	
Xizmatlar sohasi - jami	711 294,3	859 891,4	108,5
shu jumladan:			
Savdo xizmatlari	89 288,2	107 595,5	113,6
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	87 520,1	107 898,9	110,4
Tashish va saqlash	78 555,1	97 301,4	110,1
Axborot va aloqa	36 978,8	52 207,4	123,9
Boshqa xizmatlar	418 952,1	494 888,2	105,4

Quyidagi jadvalda 2024–2025-yillarda xizmatlar sohasining hajmi va o‘sish sur‘atlari aks etgan bo‘lib, ma’lumotlarni ilmiy-uslubiy yondashuv asosida tahlil qilish mumkin. 2024-yilda xizmatlar sohasi jami hajmi 711 294,3 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 859 891,4 mlrd so‘mga yetgan.

Bu esa xizmatlar sektorida sezilarli kengayish jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi. O‘sish sur‘ati 108,5 % ni tashkil etib, real sektorda xizmatlar ulushining barqaror ortib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur tendensiya iqtisodiyotda servislash tirish jarayonining chuqurlashayotganini anglatadi. 2024-yilda 89 288,2 mlrd so‘m, 2025-yilda 107 595,5 mlrd so‘m bo‘lib, o‘sish sur‘ati – 113,6 %.

Savdo xizmatlaridagi yuqori o‘sish ichki iste‘mol talabining kengayishi, chakana savdo infratuzilmasining rivojlanishi hamda elektron savdo platformalarining faollashuvi bilan izohlanadi. 2024-yilda 87 520,1 mlrd so‘m, 2025-yilda 107 898,9 mlrd so‘m. o‘sish sur‘ati – 110,4 %.

Mazkur yo‘nalishdagi o‘shish turizm oqimining ortishi, mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini sonining ko‘payishi hamda aholining real daromadlari o‘shishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2024-yilda 78 555,1 mlrd so‘m, 2025-yilda 97 301,4 mlrd so‘m. o‘shish sur‘ati – 110,1 %.

Transport-logistika xizmatlarining o‘shishi tashqi savdo aylanmasining kengayishi va hududlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. 2024-yilda 36 978,8 mlrd so‘m, 2025-yilda 52 207,4 mlrd so‘m. o‘shish sur‘ati – 123,9 %.

Axborot va aloqa xizmatlari eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega yo‘nalish bo‘lib, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Telekommunikatsiya xizmatlari, IT-xizmatlar, raqamli platformalar va elektron hukumat tizimlarining kengayishi asosiy drayver hisoblanadi. 2024-yilda 418 952,1 mlrd so‘m, 2025-yilda 494 888,2 mlrd so‘m. o‘shish sur‘ati – 105,4 %.

Hajm jihatidan eng katta ulush aynan shu guruhga to‘g‘ri keladi. Biroq o‘shish sur‘ati nisbatan pastroq. Bu xizmatlar tarkibida an‘anaviy va nisbatan barqaror segmentlar ulushi yuqoriligini anglatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

- Eng yuqori o‘shish – axborot va aloqa sohasida (123,9 %).
- Eng katta hajm – boshqa xizmatlar guruhida saqlanib qolmoqda.
- Savdo, yashash-ovqatlanish va transport xizmatlari o‘rtacha 110–114 % diapazonda o‘smoqda.

Bu holat iqtisodiyotda quyidagi strukturaviy o‘zgarishlarni anglatadi:

1. Raqamli transformatsiya jarayoni tezlashmoqda.
2. Iste‘molga yo‘naltirilgan xizmatlar kengaymoqda.
3. Logistika infratuzilmasining ahamiyati ortmoqda.
4. Xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi oshish tendensiyasiga ega bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. 2024–2025-yillarda xizmatlar sohasi barqaror va diversifikatsiyalashgan o‘shish bosqichida bo‘lgan.
2. O‘shishning asosiy drayveri – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda savdo xizmatlari.
3. Xizmatlar sektorida strukturaviy modernizatsiya jarayoni kuzatilmoqda.
4. Kelgusida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi xizmatlar (IT, logistika, turizm) iqtisodiy o‘shishning asosiy omiliga aylanishi mumkin.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlarida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida soliq yukini kamaytirish choralari ko‘rilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada kichik biznes subyektlari daromadlariga soliq stavkalari pasaytirildi, kichik biznesning yangi yuqori riskli sohalariga investisiyalar uchun soliq kamaytirildi, soliq imtiyozlari taqdim etildi, firmalarning qo‘shilishi va ajralib chiqishining moliyaviy tartibi soddalashtirildi, daromad solig‘i stavkalari pasaytirildi, eng yuqori stavka bo‘yicha soliqqa tortiladigan ish haqi chegarasi oshirildi.[4]

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash moliyaviy, mulkiy, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi, konsalting xizmatlari va tadbirkorlar faolligini oshirish kabi yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlash kerakligini ko‘rsatmoqda. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar orasida kredit foiz stavkasining yuqoriligi muammosi va maqbul shartlar asosida subsidiya olishdagi qiyinchiliklarni keltirish mumkin. Shunga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi nisbatan past darajada baholanmoqda.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash muammosi asosiy ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda xizmat ko‘rsatish korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini tizimlashtirgan holda ushbu jarayonni hududiy darajada boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirishni boshqarish metodologiyasini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari quyidagilardan iborat:

1) Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni mikromoliyalash. Mikromoliyalash – bu kichik biznes subyektlariga boshlang‘ich kapitali va kredit tarixi bo‘lmagan taqdirda tadbirkorlik faoliyatini boshlash imkonini beruvchi moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyat. Mikromoliya – bu kichik miqdordagi moliyaviy xizmatlardir.

2) Foiz stavkalarini subsidiyalash. Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muammolardan biri banklar tomonidan kichik biznes subyektlari uchun nomaqbul bo‘lgan kreditlar bo‘yicha yuqori foiz stavkalari belgilanishini ko‘rsatmoqda. Kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanishi muammosini hal qilish yo‘llaridan biri bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkasini subsidiyalashdir.

3) Kreditlar va qarzlarni kafolatlash berish. Kichik biznes subyektlari boshlang‘ich kapital va likvid garov ta‘minoti yo‘qligi sababli banklar uchun qarz oluvchilarning eng xavfli kategoriyasi hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesga yordam berishning asosiy shakllaridan biri – bu qarz mablag‘larini kafolatlashdir. Bu muammoni qisman kichik biznes subyektlarining majburiyatlari bo‘yicha kafolatlar beradigan kafolat fondlari hal qiladi. Banklarga kafolatlar kafolat zahirasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Banklarning kafillik jamg‘armalari boshqaruvchilariga bo‘lgan ishonchi tufayli kichik biznesni kreditlashda risk kamaymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahlasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi huzurida Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kafolat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Moliya vazirligi G‘aznachiligi huzurida Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kafolat jamg‘armasi tashkil etilgan. Qarorga ko‘ra, davlat qarzi hisobiga moliyalashtirilgan loyiha va dasturlar bo‘yicha qarzдор tashkilotlar yoki qayta moliyalashtiruvchi banklar o‘z qarz to‘lovlarini vaqtida va to‘liq amalga oshirmagan holatlarda mazkur qarzдорlik, birinchi navbatda jamg‘arma mablag‘lari, jamg‘arma mablag‘lari yetarli bo‘lmasa Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga qoplanadi.

4) Imtiyozli kreditlar berish. Kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar berish kichik biznes uchun mablag‘ olishning eng oson usullaridan biridir. Bunday kreditlarni olish kamroq rasmiyatchiliklarni o‘z ichiga oladi, bundan tashqari, banklar kreditni to‘lash bo‘yicha kechiktirishni ta‘minlashi mumkin. Biroq, ushbu usulning samaradorligi davlat kafolatlarining samarali tizimini yaratishga bog‘liq, chunki imtiyozli kreditlar berish kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari, shuningdek, mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshiriladi.

5) Venchur moliyalashtirish. Odatda kichik biznes subyektlari intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarni qo‘lga kiritish va yangi mahsulotlar (xizmatlar)ni ishlab chiqish va tashkil etish uchun mablag‘larga ega bo‘lmaydi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning o‘rnatilgan tizimi mavjud bo‘lmagan taqdirda, samaradorligi jahon amaliyotida tasdiqlangan venchur moliyalashtirishga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Shuningdek fikrimizcha, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishni boshqarish quyidagi yondashuvlarga asoslanishi kerak:

1) infratuzilmaning kichik korxonalarining rivojlanish darajasiga va mahalliy tadbirkorlarning mavjud ehtiyojlariga muvofiqligi, kichik biznes faoliyatining eng dolzarb muammolariga yechimlar jamlanganligi;


2) har bir infratuzilma obyekti uchun kichik biznes subyektlariga ko‘rsatiladigan xizmatlarning minimal to‘plamini belgilaydi va ularning sifati standartlarini ishlab chiqadi;

3) infratuzilmaning tadbirkorlar uchun qulay joylashuvi; ayrim hududlarda zarur infratuzilma obyektlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, bunday hududlarda yashovchi tadbirkorlar uchun xizmatlar boshqa hududlarda joylashgan infratuzilma obyektlaridan masofadan turib ko‘rsatilishi kerak;

4) hududlardagi infratuzilma obyektlari faoliyati to‘g‘risida mahalliy tadbirkorlarni xabardor qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

Hududiy hokimiyat organlari, tadbirkorlik tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va aholi o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlagan holda davlat, kichik biznes va jamiyatning o‘zaro hamkorligini tashkil etish modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, taklif etilayotgan modelning o‘ziga xos xususiyati kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan tartibga solish funksiyalarini

amalgaga oshirishga asoslangan davlat-xususiy sheriklik doirasida davlat va tadbirkorlik tuzilmalarining o‘zaro hamkorligi subyektlarining oshkor etilishidan iborat(1-chizma).



1-chizma. Davlat, kichik biznes va jamiyatning o‘zaro hamkorligini tashkil etish modeli.[5]

Xulosa va takliflar. 2024–2025-yillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning eng dinamik va barqaror rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Uning YAIMdagi ulushi 50 foizga yaqinlashayotgani mazkur sektor iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Xizmatlar sohasi:

- aholi bandligini ta‘minlashda muhim o‘rin egallamoqda (ayniqsa, ayollar va yoshlarni ish bilan ta‘minlashda);
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy faoliyat maydoniga aylangan;
- hududiy iqtisodiy rivojlanishda muhim multiplikativ ta‘sir ko‘rsatmoqda;
- raqamli iqtisodiyotning kengayishi bilan yanada yuqori o‘shish salohiyatiga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning eng samarali yo‘nalishlari — bilvosita moliyaviy mexanizmlar (mikromoliyalash, foiz subsidiyalari, kredit kafolatlari), soliq imtiyozlari, infratuzilmani rivojlantirish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, venchur moliyalashtirish mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligi, hududiy infratuzilma nomutanosibliigi va raqamli kompetensiyalar yetishmasligi sohaning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida faoliyat yurituvchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish

- Xizmat ko‘rsatish sohasi uchun alohida maqsadli kredit liniyalarini joriy etish;
- Foiz stavkalarini subsidiyalash mexanizmini soddalashtirish va hududlar kesimida differensiallash;
- Kafolat jamg‘armalari kapitalini oshirish orqali kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Innovatsion xizmat ko‘rsatish korxonalarini uchun venchur fondlar tashkil etish.

2. Soliq siyosatini takomillashtirish

- Yangi tashkil etilgan xizmat ko‘rsatish korxonalariga 2–3 yillik soliq imtiyozlari berish;
 - Raqamli va eksportbop xizmatlar uchun soliq preferensiyalarini kengaytirish;
 - Hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab soliq stavkalarini moslashtirish.
3. Raqamlashtirishni jadallashtirish
- Kichik biznes uchun bepul yoki subsidiyalangan raqamli platformalar yaratish;
 - Elektron hisob-kitob va soliq tizimlarini soddalashtirish;
 - Tadbirkorlar uchun raqamli savodxonlik bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish.
4. Infratuzilmani rivojlantirish
- Har bir hududda biznes-inkubator va konsalting markazlari tarmog‘ini kengaytirish;
 - Xizmat ko‘rsatish klasterlarini shakllantirish;
5. Hududiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish
- Past rivojlangan hududlar uchun maxsus subsidiya paketlarini ishlab chiqish;
 - Turizm, logistika, IT va maishiy xizmatlar bo‘yicha hududiy ixtisoslashuv dasturlarini amalga oshirish;
 - Davlat-xususiy sheriklik asosida servis infratuzilmasini kengaytirish.

Xizmat ko‘rsatish sohasini davlat tomonidan tizimli, kompleks va hududiy moslashuvchan yondashuv asosida qo‘llab-quvvatlash iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini chuqurlashtiradi, aholi bandligini oshiradi va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi. Shu bois, xizmatlar sektorini rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy, institutsional va raqamli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. World Development Report 2025: Digital Transformation and Services Sector Development. – Washington D.C., 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon. – Toshkent, 2022.
4. Русаков СВ. Финансово-экономические механизмы развития малых предприятий за рубежом / СВ. Русаков, М.С Русаков, А.Н. Казаков // Управление собственностью: теория и практика. – 2007. - № 4. – С. 57-64.
5. Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi. “Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalar faoliyatisamaradorligini oshirish”. Avtoreferat, Samarqand-2024, 22-bet

<p>М. Муллаева</p> <p>Приоритетные направления государственной поддержки предприятий, осуществляющих деятельность в сфере услуг</p> <p>Аннотация. В данной статье проанализированы приоритетные направления государственной поддержки предприятий, осуществляющих деятельность в сфере услуг, в разрезе 2024–2025 годов. За последние два года на основе научно-статистического анализа изучены доля сферы услуг в ВВП, темпы её роста, показатели занятости, а также механизмы финансовой поддержки. По результатам исследования обоснована приоритетная роль налоговых льгот, системы кредитования, цифровизации, расширения инфраструктуры и территориально дифференцированных мер поддержки в развитии сектора услуг.</p> <p>Ключевые слова: сфера услуг, государственная поддержка, ВВП, занятость, малый бизнес, налоговые льготы, цифровая экономика, инфраструктура.</p>	<p>М. Mullayeva</p> <p>Priority Directions of State Support for Enterprises Operating in the Service Sector</p> <p>Abstract. This article analyzes the priority directions of state support for enterprises operating in the service sector in the context of 2024–2025. Over the past two years, the share of the service sector in GDP, its growth rates, employment indicators, and financial support mechanisms have been examined on the basis of scientific and statistical analysis. The study substantiates that tax incentives, credit mechanisms, digitalization, infrastructure expansion, and territorially differentiated support measures play a priority role in the development of the service sector.</p> <p>Keywords: service sector, state support, GDP, employment, small business, tax incentives, digital economy, infrastructure.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.